

Qabul qilindi: 06.01.2025

Chop etildi: 28.02.2025

UDK: 811.112.2'373.42+811.512.133'373.42

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z VA UNING MA'NOLARI BORASIDA AYRIM FIKR- MULOHAZALAR

*Jumaniyazov Atabay, Urganch davlat universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi¹*

*Yusubova Chamangul Mamutjonovna, Urganch davlat universiteti
tayanch doktoranti²*

A FEEDBACK ON THE WORD AND ITS MEANINGS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

*Jumaniyazov Atabay, candidate of philological sciences, professor,
Urgench State University¹*

*Yusubova Chamangul Mamutjonovna, PhD student, Urgench State
University²*



<https://orcid.org/0000-0002-4952-6156>
atabeyj@yahoo.de



chamanqul.yusupova.1989@mail.ru

НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О СЛОВЕ И ЕГО ЗНАЧЕНИЯХ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Джуманиязов Атабай, профессор Ургенчского
государственного университета, кандидат филологических
наук¹*

*Юсубова Чамангул Мамутджоновна, докторант Ургенчского
государственного университета²*

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'zlar va ularning ma'no xususiyatlari nemis va o'zbek tillarida chog'ishtirilib o'rganiladi. So'zlarning ma'no, mazmun, tub xususiyatlari, farqlari ochiqqlanadi. Ma'nolarning kishi ongiga o'z, qo'shma va assotsiativ ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: so'z, gap, narsa, hodisa, ma'no, mazmun, zamir, sema, semema, nom ko'chishi, salbiy ma'no, ijobiy ma'no, ko'chma ma'no, assotsiativ, assotsiatsiya.

Abstract: In this article, words and their semantic features are studied through a comparison of German and Uzbek. The characteristics of meaning, content, and reference of words, along with their differences, are revealed. The effects of meanings on human consciousness, whether intrinsic, composite, or associative, are also analyzed.

Key words: word, sentence, thing, event, meaning, content, reference, seme, sememe, nominal transfer, negative meaning, positive meaning, figurative meaning, associative, association.

Аннотация: В этой статье изучаются слова и их особенности значения сравнительно на немецком и узбекском языках. Раскрываются различие между значением, содержанием, затаенными мыслями слов. Значение слов анализируется по его прямым, переносным и ассоциативным влияниям на разум человека.

Ключевые слова: слово, предложение, предмет, обстоятельство, значение, содержание, затаенная мысль, сема, семема, перенос имён, отрицательность, положительность значений, прямое, переносное и ассоциативное значение, ассоциация.

KIRISH. Ma'lumki, insoniyatning eng muhim va asosiy muloqot vositasi til hisoblanadi. Til birliklari ichida esa so'z (tilshunoslikda so'z ostida tilning eng kichik mustaqil ma'no anglatuvchi va mustaqil qo'llaniluvchi birligi tushuniladi. Maqolamizda mazkur ta'rifga to'la qo'shilgan holda ish tutiladi) odamlarning o'zaro fikr almashinuvida birlamchi rol o'ynaydi. Zero, kishilik jamiyatining o'zaro muloqoti asosan (imo-ishoralar, mimika va jestlar, ko'z qarashlari va b. hisobga olinmaganda) faqat va faqat so'zlar ishtirokida amalga oshadi. Biz so'zlar orqali obyektiv borliqni ataymiz, ko'rsatamiz va ularga xos muhim belgilarni, ya'ni tevarakatrofimizdagi narsalarning tabiati (*hayotdagi ko'rinishi, hajmi, rangi, shakli-shamoyili*) va mohiyati (*hayotdagi vazifasi, o'rni, ahamiyati*) kabi xususiyatlarni ifodalaymiz. Mazkur belgilar ifodasi esa, asosan besh hissiy a'zolarimiz (*ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, tana orqali his qilish*) ta'sirida anglashilayotgan tushunchalar va ularning mushohadasi orqali ongimizda gavdalanadi va ular so'zlar orqali nomlanib, farqlaniladi. Natijada insoniyatning o'zaro muloqotida so'z (nom) shunday bir qudratli vositaga aylanadiki, endi bizda so'zlar orqali ifodalanilayotgan narsa va hodisalarni qaytadan ko'rish, eshitish, ta'm yoki hidini bilish, paypaslab yoki silab (qattiq-yumshoq, issiq-sovuqligini sezish uchun) o'tirishga ortiqcha hojat qolmaydi. Binobarin butun borliq, o'n sakkiz ming olam, so'zlar orqali to'la ifodalanilishiga harakat qilinadi, ular orqali anglashilgan narsalar mavjud (yoki mavjud emas)ligiga shak-shubha qolmaydi, ularni qaytadan borlab yoki yo'qlab o'tirishga zarurat sezilmaydi, "so'z" orqali kifoyalaniladi. Inobatdagi narsa va hodisalar so'z vositachiligida tafakkur etiladi va gap nima haqida borayotganligi ruhan mushohada qilinadi. Bu fenomenal hodisa orqali esa dunyoni bilishda so'z (til)ning inson hayoti uchun tayanch qurol ekanligi, turmush mushkulotlarini yengillashtirishda muhim dastakligi namoyon bo'ladi. Amal va tajriba natijasida uning mo'jizaviy kuchi isbotlanadi. Yaratganga, uning odamzodga bergan mazkur "ta'limi asmosi" uchun ich-ichdan hamd-u sanolar aytiladi.

Mazkur fikrlarga tayanib, maqolamiz sarlavhasida kalit so'z sifatida qayd qilingan "So'z

ma'nolari" haqida muxtasar to'xtaladigan bo'lsak, dastavval shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, har bir so'z o'z ma'nosi yoki ma'nolariga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ular orqali anglashilayotgan tushuncha (*tub ma'no*) asosan gap(lar)da namoyon bo'ladi. Zero biz bildirmoqchi bo'lgan ma'lumot, aytmoqchi bo'lgan xabar yoxud nazdimizda tutilgan fikrlar so'zlarning o'zaro ma'no-munosabati va sintaktik bog'liqligiga ko'ra asosan gap ("Gap" atamasi orqali biz to'g'ri talaffuz yoki imloga ega bo'lgan (fonetik jihatdan), o'zaro ma'no-munosabati nuqtayinazaridan to'g'ri bog'langan (grammatik jihatdan) so'zlar vositasi bilgan-anglashilgan fikrni tushunamiz) orqali ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Biroq maqolamizda "gap"ga emas, "ma'no" asosiy mavzu ekanligini e'tiborda tutib, gap to'g'risida alohida to'xtalib o'tirmaymiz, asosiy diqqatimizni so'zlar ma'nosiga qaratamiz. Bunda avvalo "ma'no" so'zi ostida o'zbek tilshunosligida haligacha aynan nima anglashilishi zarurligi (*nemis tilshunosligi bu borada ko'p ilgari ketgan*) haqida aniq bir fikr yoki konkret ta'rif yo'qligini, hanuzgacha muayyan to'xtamga kelinmaganligini nazarda tutish shart. Chunki "ma'no" so'zi izohi mazmun, tushuncha leksemalari bilan muqobil ko'rilib, ya'ni "ma'no" ayrim hollarda "mazmun" yoki "mazmun"ni "ma'no" deb ham tushunaverilishi mumkinligi, ularning ayni ekanliklari tilimizning izohli lug'atlarida ta'kidlanib kelinaypti. Mazkur sharh va izohlarga yana chuqurroq e'tibor qaratilsa "ma'no" leksemasining kontekstual ifodalanish sema va sememalari ko'pligi qayd qilinishi bilan bir qatorda, uning inson tasavvuridagi assotsiatsiyasida "mazmun" leksemasiga to'la ma'nodosh (Hozirgi davr tilshunosligida ma'nodosh – sinonim so'zlarning ma'nan bir-biridan farq qilishi, tilda bir xil ma'noli so'zlar uchramasligi, balki ularning ma'nosi muayyan hollarda o'xshab ketishi, o'xshashlik esa asosan ikki alohida narsa va hodisa muqoyasasi asosida mushohada qilinishi keyingi yillarda qayta-qayta ta'kidlanib kelinmoqda) ekanligi qayd qilinadi va buning uchun jonli (*gohida muqobil, gohida e'tirozli*) misollar ham keltiriladi. Shu asnoda "ma'no" va "mazmun" so'zlariga nafaqat ikkita

alohida til birligi sifatida qarash, balki ularning ma'nolari ham tubdan alohidalik kasb etishi qiziquvchi (o'rganuvchi) nigohidan chetda qoldiriladi. Vaholanki "ma'no" leksemasining o'zagi *ma'ni*, "mazmun" leksemasining o'zagi *zamin* so'zlari bilan bog'liqligi va ular ta'sirida inson ongi in'ikosida boshqa-boshqa hodisa va tasavvurlar shakllanishi ortiqcha izoh talab qilmaydi. Ular bilan birga qo'llaniladigan sintaktik birliklar (*ma'no orqali mavhum, mazmun orqali esa konkret narsa va hodisalarga ishora qilinadi*) ham turlicha. Shu sabab, mazkur so'zlar mushohadasi zaminida obyektiv borliqqa alohida yondashuv yotadi: "ma'no" abstrakt ravishda inson ruhining bevosita ko'magida, "mazmun" esa konkret holatda insonning hissiy a'zolari (beshta) yordamida ongimizda gavdalanadi va mushohada qilinadi. Fikrimiz bayonini lo'nda qilib ifodalaydigan bo'lsak, "ma'no"ni tom ma'noda ko'rib yoki ta'mini sezib bo'lmaydi, "mazmun"ni esa nazardan kechirish yoki tanovul qilish mumkin. Masalan, "palov" (taom)ning yegulik ekanligi ma'no jihatdan ruhimiz orqali tasavvur qilinadi, uning mazmun jihatdan qaysi masalliklardan iboratligi ko'z orqali ko'riladi va ta'mi til orqali seziladi. Shu ma'noda, izohli lug'atlar sharhining yetarli emasligiga e'tirozlarimizni isbotlash niyatida *ma'no* va *mazmun* so'zlariga "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2006-yil) bergan sharhlarni aynan keltiramiz:

Ma'no – (mazmun, tushuncha, g'oya);

1. So'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha. *So'zning to'g'ri ma'nosi. Men odatim bo'yicha, so'zlarning ma'nolarini va nomlarning nomlangan narsa bilan munosabatini bilishga qiziqqanimdan: - U qishloqni nega Tezguzar deb ataganlar? – deb so'radim. S.Ayniy, Esdaliklar.*

2. Mazmun. *Gavhar bu gapdan "Qo'limdan kelsa, yordamimni ayamayman", - degan ma'noni uqdi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.*

3. Ba'zi xatti-harakat va shu kabilardan anglashiladigan narsa; ifoda. *Xotin uning harakatidan "o'pich ber" degan ma'noni angladi-da: "-Shuni to'g'ri ayta qolsangiz nima bo'lar ekan!"-dedi. A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin.*

4. Biror narsaning mohiyati, nima ekanligi, mohiyat. *Samandarov zaharxanda qildi: "-Bu qanaqa musobaqa bo'ldi? Musobaqaning ma'nosini tushunasanmi o'zing?" Abdulla Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. [2; 2- жилд, 6.565-566].*

Mazkur leksemalar izohlarining lug'atlarimizda ularning o'zaro ma'nodosh so'zlar ekanligi ta'kidlanib kelinayotganini yanada ravshanroq va ko'rgazmaliroq ko'rsatish uchun "mazmun" so'ziga berilgan izohlarni ham aynan keltiramiz.

Mazmun (mundarija, ma'no)

1. Aql, fikrlash bilan tushuniladigan, mantiqiy mundarija; boshqa belgi ifodalangan ichki mundarija. *Kitobning mazmuni. Xatning mazmuni. "-Qayin otang menga bir xat yozibdir, o'qib-o'qib, mazmuniga tushunolmay hayron bo'laman". A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

2. Ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarni belgilovchi asos, mohiyat. *Boshqa barcha tinchliksevar xalqlar singari, tinchlik va ijodiy mehnat xitoyliklarning ham hayot mazmuni, ijod manbaidir. T.Jo'rayev, Ulug' Xitoyda.*

3. Biror hodisaning mohiyatini belgilovchi, narsalarni aynan shu narsa sifatida ifodalovchi muhim element va o'zgarishlarning yig'indisi, asosi. *Shakl va mazmun birligi [2; 2- жилд, 6. 525-526].*

Berilgan izohlardan ayon bo'lyaptiki, ularda inson hayotidagi eng asosiy omil – so'zlarning ma'nosi va mazmunini anglash tabiatan insonning avvalo his-tuyg'ulari, keyin esa ruhi bilan bog'liqligiga ishora qilinmaydi, ular inobatga olinmaydi. Zero, so'zlar orqali obyektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalar nafaqat nomlaniladi, balki hissiy a'zolarimiz (*ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, tegish, ushlash, silash yoki paypaslash*) orqali ular mushohada qilinadi, mavjudligi tan olinadi va ruhan qalbga tuyuladi. Hissiy a'zolar orqali anglashilayotgan ma'nolarga inson aqlini ham ishga solgan holda munosabatda bo'ladi, aql ma'no va mazmunni anglashda ko'maklashadi va inson ruhan bardamlashadi, fikrlari teranlashadi. Va o'z navbatida aqli ham takomillashadi. Darhaqiqat, inson so'z ma'nolarini hissan va ruhan anglashi orqali unda so'zlar orqali ifodalangan obyektiv borliqning ma'nosi va mazmuni haqida tushuncha, tasavvur paydo bo'ladi. Biroq tushuncha hali kamlik qiladi va doimo ham aniq hamda to'g'ri bo'lavermaydi. Binobarin "inson tushunadi" degani "inson aniq biladi" degani emas. So'zlar ma'nosini to'liq bilish va qalbdan his qilish uchun barkamol ruh kerak. Ruh aralashmaguncha avvalo narsani, keyin uni nomlayotgan so'zni va pirovard natijada ikkalasi ta'sirida mushtaraklashib tushunilayotgan ma'noni to'la anglash qiyin. Qisqa qilib aytganda, ma'no bu

inson besh hissiy a'zosiga suyanib va aqlini to'la va to'g'ri ishlatgani holda so'zlarni ruhan anglashidir. Mazkur fikrlar, indallosini aytganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, so'zlar ma'nosini na ko'rib, na eshitib va na qo'l bilan ushlab bo'ladi, ularni anglash kerak. Ong esa ruhimiz in'ikosidir. Mulohazalarimizni konkret misollar bilan tushuntirishga harakat qilamiz.

Masalan, rang (kamalak ranglari – *qizil, to'q-sariq, sariq, yashil, moviy, ko'k, binafsha*) qanday ekanligini ko'rish mumkin, lekin nima ekanligini ayta olmaymiz. Zero rangni ko'rish bizga ko'zimiz orqali tabiatan ato etilgan, lekin ranglar ostida nima yotganligi bizga hali qorong'u. Endi odamga Alloh tomonidan berilgan ikkinchi inoyat – aqlni ishlatish zaruriyati tug'iladi. Biroq aqlimiz ham besh hissiy a'zomiz mushohadasiga bog'liqligi bois, hali rangni nima ekanligini ta'riflay olmaydi, o'jizlik qiladi. Endi navbat ilm (tajribalar)ga keladi. Shularga tayanib, ranglarni sezish uchun avvalo yorug'lik zarurligini bilamiz. Zero qorong'ulik rangni ko'rsatmaydi, inkor etadi, “yo'qqa chiqaradi”. Endi ko'z o'ngimizda uch narsa mushtaraklashayotganini sezamiz, ya'ni *muayyan* narsa, *muayyan* yorug'lik va *muayyan* rang. Rangni, yorug'likni, narsani aniq ko'ramiz, biroq “muayyan” nimaligini anglamaymiz, bu so'zning- ishorasi ko'zga ko'rinmaganligi sabab, uni tasavvur ham qila olmaymiz, chunki u na miqdor, na daraja va na reallikni aniq bildiradi. U mavhum so'z, ishorasi esa konkret emas. Natijada uning asosi va mezonini nimadaligini anglashda yana qiynalamiz. Xayolimizda “rang” haqida ma'lum tasavvur (rasm, surat) hosil bo'lganday bo'ladi va uni qalban his qilamiz. Ammo uni baribir so'zlar bilan ifodalab, ta'riflab bo'lmaydi. Darvoqe, ko'zi ko'r odam “rang” nimaligini ko'rmaydi va bilmaydi (*ko'rmagan narsasini tasavvur ham qila olmasa kerak*). Ko'zi ochiq odam esa “rang”(oq, qora)ni ko'radi, lekin nimaligini ta'riflay olmaydi (*demak, bilmaydi*). Chunonchi, ko'r odam ko'zi ochiqdan “*Rang nima o'zi?*” deb so'rasa, biz ko'zi ochiqlar “rang” nima ekanligini na izohlab va na sharhlab bera olamiz. Biz ranglar “oq, qora, qizil, ko'k” bo'ladi deb turlarga bo'lib tushuntirmoqchi bo'lishimiz mumkin, lekin “Xo'p, oq nima o'zi?” deb ko'zi ko'r odam so'rasa, “oq” nimaligini aytishga harakat qilib ko'ring-chi! Ayta olmaysiz, ayta olmaymiz! Xulosa shuki, so'z ma'nosi (ko'rinmasligi sabab) ko'zi ko'r yoki ko'zi ochiq

uchun bab-baravar, ikkalasi ham ruhlariga tayanib ish ko'radi, birisi ko'rib, birisi ko'rmayin. Ko'rlarning tasavvur dunyosi biz uchun qorong'i. “Qorong'i”da hech narsani ko'rib bo'lmaganidek, bu mavzu yechimini ko'zi ko'rlarga qoldiramiz. Biz ko'zi ochiqlar esa rangni ko'rsak-da, uning nimaligi, uning tasavvuri faqat va faqat ruhimizda shakllangan, aks etgan bo'ladi. Mulohazalarimiz qisqa xulosasi shuki, mazkur muammoni (rang nimaligini) uning tabiati va mohiyatini yechishda yuqorida ta'kidlaganimizdek hissiy a'zolarimiz o'jizlik qiladi, aqlimiz yetishmaydi, ilmimiz kamlik qiladi. Xuddi shu yerda insonga uning ruhi ko'mak beradi, ma'noni anglashga yordam qiladi. So'zlar ma'nosini tushunish aynan inson ruhiga bog'liq ekanligi isbot talab qilmaydi. Zero ruh shunday qudratli narsaki, unga na makon, na zamon va na so'z ma'nolarini qalbga o'tkazish to'siqlik qila oladi. Qo'shimcha qilib yana shuni ta'kidlash lozimki, inson ma'naviyati ham uning ruhiga, ruhiy pokligiga bog'liqdir. Darhaqiqat ruh orqali so'zlar ma'nolari anglashiladi, ma'noni anglash esa o'z navbatida ruhni ulug'laydi. Shu yo'sinda narsalar, so'zlar (nomlar) ning ma'nolari ostida shakllangan inson ma'naviyati ham (*ma'no, ma'nan, ma'naviy, ma'naviyat – hammasining o'zagi bir ma'ni so'ziga borib taqaladi*) bevosita inson ruhi bilan birga namoyon bo'ladi.

Endi bildirilgan fikrlar asosida “mazmun” so'zining ma'nosini tahlil qilamiz. Bu so'z izohli lug'atlarimiz ta'rifi bo'yicha “*mundarija, ma'no, mohiyat*” deb tushunadigan bo'lsak, fikrimiz yana “ma'no” so'zi ma'nosi tomon yo'naladi. Ya'ni “*So'zingda ma'no yo'q!*” “*So'zingda mazmun yo'q!*” gaplari ma'nodosh bo'lib qoladi, deyarli bir xil tushuniladi. Chunki ularning farqiga qiziqmaymiz, sababini izlamaymiz. Lekin “*So'zingda na ma'no bor va na mazmun!*” - deyilsa ma'no bilan mazmun farqlanishi zarurligi anglashiladi. Ularning ma'no farqlarini bilish yuqorida biz bildirgan fikr, mulohazalar asosida yondashilsa, murakkab emas. Binobarin “ma'no” uchun ruh, mazmun uchun esa hissiy (tana) a'zolari zarur. Zero mazmunni ko'rsa, eshitsa bo'ladi. Ta'm, hid, qattiq, yumshoq, issiq, sovuqlikni sezsa bo'ladi. Narsa mazmunida (mazmun so'zining o'zagi “zamin” ekanligi inobatga olinsa) nima borligi, uning nimadan iboratligi, tarkibi va o'zaro bog'liqligi inson tomonidan osongina mushohada qilinadi. Biz shu tariqa narsa-hodisalar mazmunini

hissiy a'zolarimiz orqali sezamiz, shohidi bo'lamiz va guvohlik beramiz. Mabodo, so'z mazmuni konkret narsani emas, abstrakt (mavhum, ilohiy) narsalar(sevgi)ni anglatsa, yana ruhga murojaat qilamiz, ularni ruhan ko'z oldimizda gavdalantiramiz, tasavvur qilamiz va timsol yasaymiz. Natijada qalbimizda ularning ruhiy mazmuni (sevgi bilan uzviy bog'liq barcha konkret narsalar shodasi) shakllanadi, tasavvur qilinadi. Tafakkur kengligi hajmi esa, e'tibordagi shaxsning amaliy va nazariy mushohadasi, ruhining ojiz yoki kuchliligi bilan belgilanadi va "sevgi"ni har kim o'z tushunchasiga asosan anglaydi, qadrlaydi va baholaydi.

Ma'lumki, so'zlarning ma'nosi va mazmuni haqida gap ketganda tilimizda yana bir "*zamir*" leksemasi borki, bu so'z "ma'no" va "mazmun" bilan bir qatorda, hatto ma'nodosh holatda ham qo'llanilib va tushunilib keladi. Bu so'z aslan forsiy bo'lib, ma'nosi tilimizdagi "*olmosh*", "*almashlash*" so'zlariga muqobildir. E'tiborli joyi shundaki, izohli lug'atlarimiz bu so'zni ham *ma'no* va *mazmun* til birliklari bilan ayni sharhlaganligini aniq ko'rsatish maqsadida, mazkur so'z izohini ham lug'atda berilganicha keltiramiz :

Zamir (vijdon, aql,yashirin fikr)

1. Tub mohiyat, asl ma'no, mazmun; asos. Romandagi qator obrazlarning zamirida konkret tarixiy shaxslar yotadi.

2. olmosh.

3. Zamir (erkaklar ismi). [2;2-жилд, 6.128.]

Berilgan izohlardan ko'rinib turibdiki, *ma'no*, *mazmun* va *zamir* so'zlarining ma'nolari sinonimik xarakterga ega, ya'ni "*Gapingda ma'no yo'q!*", "*Gapingda mazmun yo'q!*" va "*Gapingda zamir yo'q!*" gaplarini ma'nodosh tushunish va hatto birini ikkinchisi o'rniga ishlataverish mumkindek, ma'nosi bittaday tuyuladi. Gaplar mohiyatiga chuqurroq yondashilsa, "*Gapingda ma'no yo'q!*" deganda *gaping* orqali *hech narsa tushunmayapman, gaping aqlga sig'mayapti, nima aytayotganingni men qalban va ruhan anglamayapman*, degan ma'nolar yotadi.

Mabodo "*gapingda mazmun yo'q!*" deyilsa, *gaping* asossiz, konkret (abstrakt) narsalarga suyanmaydi, *bo'sh*, *ashyoviy dalili yo'q*, *yuzaki*, *umumiy* ma'nolarini nazarda tutish joiz.

Agarda "*gapingda zamir yo'q!*" deyilsa, *gapingga* almashtirib beradigan narsa *yo'q*, *gaping quruq*, *gaping befoyda*, *gapingga hech narsa*

berilmaydi yoki *gaping evaziga biror narsa olib bo'lmaydi*, *evazi yo'q*, degan ma'nolarni inobatga olish zarur.

Boshqacha qilib aytganda, "zamir" so'zining forsha *olmosh*, *almashlanib olinish qiymatiga teng narsa*, arabchada esa *yashirin*, *pinhona* ma'nolaridan kelib chiqib, "zamir" so'zining ma'nosini *so'zning qiymati nimaga tengligi*, *muayyan so'z aytilgandan keyin uni nimaga almashlab olish mumkinligi*, yoxud *shu so'z eshitilgandan keyin so'z o'rniga nimani keltirib berishlari* yoki *nimani olish mumkinligi*, deb tushunish kerak.

Masalan: "Suv" so'zi aytilsa, so'zning qiymati, tengi, uning evazi – suv (ichimlik) ekanligi va shu so'zni aytgan odamga (masalan kasalga) albatta suv keltirib berish zarurligi ma'nolari yotadi. Ya'ni "suv" so'zining evaziga ichimlik beriladi, so'z so'zligicha qolib ketmaydi, konkret narsaga almashtiriladi.

MUHOKAMA. Tilshunosligimizda so'z ma'nolari yuqorida qayd qilganimizdek yetarlicha o'rganilib kelinmayotgan bo'lsa-da, ularning tasnifi maqtovg'a loyiq. Milliy tilimizda ular to'rtga:

1. Atash ma'nosi;

2. Ko'rsatish ma'nosi;

3. Leksik ma'nosi (tub, asliy);

4. Ko'chma ma'nolarga bo'lib o'rganiladi [1;6.100] (*nemis tilida asosan ko'rsatish va leksik ma'no farqlanadi*) [4;S.394] va bu tasnif so'z ma'no xususiyatlarini o'rganishda muayyan aniqlik va yengillik tug'diradi.

Masalan, tulki so'zining atash ma'nosi uning nomi, boshqa hayvonlardan farqlash kodi (paroli) sifatida, ko'rsatish ma'nosiga kelsak, bu ma'no xususiyati nazdda turgan narsa va hodisaga (go'yo qo'l yoki mimika-jest bilan ko'rsatilganday) ishora qiladi. Chunonchi, "*Bu yilgi ov sezonida tulkilar otilmasin!*" degan gapda tulki nomlanish bilan bir qatorda qaysi hayvon turining otilmasligi ko'rsatilyapti ham. Shu ma'noda qiziquvchiga dala-dashtga borib *tulkini* topib, boshqa hayvonlardan farqlab, unga alohida nazar bilan qarashga hojat qolmaydi. *Tulki* zotini tanigan ovchi endi uni ko'rsa-da otmaydi. *Tulkiga* ov qilmaydi. Tulkining – yovvoyi, *yirtqich*, *ayyor* hayvon ekanligi ovchining qalbi (ruhi)da bo'ladi. Tulki deganda ayyor odamlarning tushunilishi esa, tulki nomi (ma'nosi)ning odamlarga ko'chganligidan dalolatdir. "Tulki" leksemasi ikkala (o'zbek va nemis) tilida ham ko'p ma'noli (polisem)dir. Uning

nemis va o'zbek tillaridagi ma'nolarida muayyan farqlar ham bor, ularning lug'atlardagi izoh-qaydlarini aynan keltiramiz.

Der Fuchs: 1. kleineres Raubtier mit rötlich braunem Fell spitzer Schnauze, großen, spitzen Ohren und buschigem Schwanz – *Uzun tumshuqli, qizg'ish-qo'ng'ir junli kichikroq yirtqich hayvon*. 2.a) Fell des Fuchses: ein Kragen aus Fuchs – *Tulki terisi, juni: tulki yoqa*. b) aus dem Fell des Fuchses gearbeiteter Pelz: sie trägt einen Fuchs – *Tulki terisidan ishlangan mo'yna: ayol egnida tulki*. 3.(ugs.) durch seine Schläue und Gewitztheit andern überlegener Mensch: er ist ein (schlauer, alter) Fuchs – *Ayyorlik va makrda boshqalardan ustun odam, shum odam: u ayyor, qari tulki*. 4.(ugs., oft abwertend) ein Mensch mit roten Haaren: er, sie ist ein Fuchs – (*so'zlashuv va salbiy ma'noda*) *qizil sochli odam: u (o'g'il, qiz bola) tulki*. 5.Pferd mit rötlich braunem Fell sowie Mähne und Schweifhaar von gleicher oder hellerer Farbe – *qizil-qo'ng'ir terili yoxud shu rangdagi yoki undan to'qroq rangli yolli va quyruq sochli ot*. 6.Tagfalter mit gelb bis rotbraunen, blau bis schwärzlich gefleckten und gesäumten Flügeln – *sariq, qizil-qo'ng'ir, ko'k, qora dog'li astarli qanotli kunduzgi kapalak*. 7.(Verbindungswesen) noch nicht voll berechtigtes Mitglied einer Studentenverbindung im ersten und zweiten Semester – *talabalar korporativiga to'la a'zo bo'lmagan talaba*. 8.(veraltet) Goldmünzen – (*eskirgan*) *tilla tanga* 9.Abzugskanal einer Feuerung zum Schornstein – *mo'rining alangali tutunini chiqaruvchi tuynugi*[4;S.619].

“O'zbek tilining izohli lug'ati” esa “tulki” leksemasini quyidagicha sharhlaydi, aynan keltiramiz:

“Tulki” – 1. Bo'risimonlar oilasiga mansub, tumshug'i uzun, dumi mayin uzun junli, o'ta sezgir va ayyor yirtqich sut emizuvchi hayvon. 2.Shu hayvonning mo'ynasi va undan tayyorlangan telpak va b. 3.ko'chma O'taketgan ayyor, makkor odam haqida. [2; 4- жилд, 6.186] Ko'rinib turibdiki, “tulki” so'zining ma'nolariga berilgan nemischa va o'zbekcha izohlar ham son (quantitativ) ham sifat(qualitativ) jihatdan bir-birlaridan farq qiladilar. Nemis tilida mazkur leksemaning to'qqizta ma'nosi bo'lsa, o'zbek tilida uning 3 ma'nosiga izoh berilgan. Ikkala tilda ham o'z va ko'chma ma'nolarga to'xtalangan, sharhlar til egalarining mazkur hayvon haqidagi shaxsiy (individual) tasavvurlari bo'yicha ifodalangan. O'z ma'nosida

o'zbek tili (xalqi) e'tiborida tulkining *bo'risimon, sut emizuvchi, tumshug'i va dumi uzun, mayin junli hayvon ekanligi va uning hayotda o'ta sezgir va ayyorligi* ta'kidlansa, nemis tili(xalqi)da bu hayvonning (*kichikroq*) jussaliligi, teri va junining rangi (*qizg'ish-qo'ng'irlik*), tumshuq va quloqning uchiligi, quyruqning *paxmoqligi*, ishlanilgan terisi “tulki”ga xos asosiy sifatlar deb qayd qilingan. Qizig'i shundaki, asosiy o'xshashlik va farqlar ko'chma ma'noda ko'zga tashlanadi. Asosiy o'xshashlik “tulki” nomini ikkala tilda ham ayyor odamga ko'chishidadir. Yoxud ayyor odamning “tulki” deb xoslanishidir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, nemis tili(xalqi)da bu nom bilan ataladigan narsalar safi ancha kengaygan. Nemis xalqi uning ostida ayyor odamlar emas, *qizil sochli, qizg'ish rangli* odamlar, *qizg'ish-qo'ng'ir tusli, yolli, quyruqli otlar, sariqdan qizg'ish-qo'ng'irgacha, ko'kdan qora dog'li astar qanotli kunduzgi kapalaklar, birinchi kurs talabalari, tilla tangalar, mo'ri tuynugini muloqotda qo'llanilish o'rniga qarab tushunadi*. Nemis xalqi tasavvurida bu so'z ma'nosining kengayishi ko'p qirrali bo'lib, uning ostida ayyor odamlardan tashqari *qizil odamlar, talabalar, hayvonlar (ot), hasharotlar (kapalak), metall turi (tilla tanga), boshpana tarkibi (mo'ri tuynugi)*ni nomlashgacha yetib borgan.

NATIJALAR. Nom ko'chishiga odatda semasiologik hamda onomasiologik hodisa deb qaraladi. Biroq uning morfologik tomoni ham borki, unda nom ko'chishi jarayonida nomlar so'zma-so'z emas, balki nazddagi so'zning bir semasi (*qo'shimcha ma'no belgisi, ma'noning yana bir qo'shimcha xususiyati*) asosiy rolni o'ynaydi. Sodda so'z birikmaga aylanadi. Chunonchi, “tulki” so'zi ostida bevosita (tulki-odam) tushunilmaydi, “ayyor odam” tushuniladi. “Tulki”ning barcha *qo'shimcha semalari – ma'no xususiyatlari* (sut emizuvchi, yovvoyi, yirtqich, o'ta sezgir, ayyor, uchli quloq, uzun tumshuq, mayin junli, uzun paxmoq quyruq) ichidan uning ayyorligi inobatda (e'tiborda) bo'ladi va dominantlik qiladi. Pirovardida “tulki” so'zi ostida “ayyor odam” mushohada qilinadi. Darvoqe, inson tafakkuri va tasavvuri shu darajada kengki, natijada “ayyor odam” so'zi ostida unga ma'nodosh leksema (*mug'ombir, quv, hiylakor, makrli, shum, firibgar, pandxo'r, nayrangboz, aldovchi, avrovchi, fitnachi-odam*)lar tushunila boshlangan. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, ma'nodosh so'zlar degani ma'nosi bir xil, birining o'rniga

ikkinchisini muloqotda qo‘llayversa bo‘ladi degani emas. Ma‘nodosh degan narsani ma‘nosi o‘xshash deb tushunish kerag-u, lekin uning ma‘lum bir ma‘no qirralarida o‘xshamas tomonlari ham borligini yoddan chiqarmaslik kerak, ya‘ni iste‘molda ular muayyan holatlarda bir-birining o‘rnini bosa olmasligi mumkin. Birinchidan, ular ayrim ayrim leksema sifatida o‘zlarining tub ma‘nolariga ega va ular qo‘llaniladigan o‘rni va tuzgan sintaktik birliklariga qarab “ayyor” so‘zi bilan to‘la variantdosh bo‘la olmaydilar: “ayyor-makr, ayyor-fitna”. Ikkinchidan, ular bizning so‘zlashuv tilimizda, muloqotda ma‘nodosh tuyulsa-da, ularning ko‘pi chet (fors, arab) tillardan o‘zlashgan bo‘lib, asliyat tilidagi ma‘nolari boshqa sema va sememalarga ega. Chunonchi, “mug‘ombir” o‘zlashmasining arab tilida *tavakkalchi, qaltis ish qiluvchi*, “quv” eski turk so‘zi bo‘lib, uning *makr-hiylaga usta, ichidan pishgan*, “hiyla” arab tilida *makr, makkor, nayrang*, “makr” arabchada *hiyla, nayrang, aldov*, “shum” so‘zi ham arab tilidan kirib kelgan o‘zlashma bo‘lib, uning *baxtsizlik, musibat; balo, ofat, yomon*, “firib” forsha so‘z bo‘lib *aldovchi; aldamchilik; yo‘ldan ozdirish; hiyla, makr*, “pand” forsha o‘zlashma bo‘lib, uning “ayyor” so‘ziga qo‘shimcha *zarar-ziyon* ma‘no xususiyatlari bor va ular asosan *pand bermoq, pand yemoq, zarar ko‘rmoq, ziyon keltirmoq* fe‘lli birikmalarida uchraydi, “nayrang” o‘zlashmasi forschada *hiyla, makr; fokus, sehrgarlik*, “aldamchi ayni aldoqchi” o‘z so‘zimiz bo‘lib, ko‘p ma‘nolidir, chunonchi uning: 1.*Kishini aldashga, avrashga, laqillatishga usta, aldoqchi*; 2.*Firibgar, qallob*; 3.*Va‘dasida turmaydigan, subuti yo‘q, va‘dasiz*; 4.*Yolg‘on-yashiq gaplarni ko‘p gapiruvchi, yolg‘onchi*; 5.*Chalg‘ituvchi, chalg‘itadigan, aldaydigan, “avrovchi”*. 1.*Aytganiga (maqsadiga) yurgizish, ko‘ndirish uchun yolg‘on-yashiq gaplar qilmoq, ustalik bilan aldab-suldamoq*. 2.*So‘zlashuv tilida gipnoz qilmoq*[2;1-жилд, 6.32] kabi ma‘nolari izohli lug‘atlarimizda qayd qilingan. Bundan tashqari, so‘zlarning ma‘nolari nafaqat ular tashiyotgan ma‘lumotlar, xabarlar bilan bog‘liq, balki muloqot a‘zolarining fikr almashinish jarayonidagi mimika va jest (yuz va tana harakat)lari orqali ham ifodalanadi. Chunonchi, mug‘ombir (*ko‘z qarashi va tana harakatlari orqali ayyorlik*), quv (*ayyorlik tashqi ko‘rinishidan bilinmaydi, ichidan pishgan*), hiyla (*ko‘zda tutilayotgan, erishilmoqchi maqsadning teskarisini qilish va niyatga erishish*),

makr (*yomonlikka olib boruvchi, fojiali tugovchi faoliyat*), shum (*aqlini o‘z foydasiga ishlatuvchi, boshqalarni chuv tushiruvchi*), nayrang (*harakat natijasi aldashga olib boruvchi ish yoki sehrlash*), pand (*ziyon-zarar ko‘rsatish*), firib (*qasddan aldash, yo‘ldan ozdirish*) kabi sema (qo‘shimcha ma‘no)larni qo‘shib tushunishni taqozo qiladi. Muloqot jarayonida “ayyor” so‘ziga ma‘nodosh deb hisoblangan leksemalarning har biri aynan o‘ziga aloqador sifatlanishlar orqali ruhan anglashilib borilsa, fikrlar teran bo‘ladi, mushohada esa aniq kechadi.

Nemis tilida “ayyor” so‘zining faqat bir ekvivalenti bor, u “schlau” imlo va talaffuzga ega bo‘lib, uning ma‘nosi “*o‘z maqsadiga boshqalar o‘ylamaydigan, hatto kallasiga kelmaydigan yo‘llar bilan erishish*”ni bildiradi va tilimizdagi “shum”, “quv” so‘zlariga to‘la ma‘nodoshlik qila oladi. Boshqa variantdoshlik qiladigan til birliklariga “listig” (“List”- *aldash* so‘zidan yasalgan) leksemasi kiradi va u *o‘z ko‘zlagan maqsadini boshqalardan yashirib, ularni aldab erishuvchi faoliyatni* bildiradi. “Lügnerisch” sifati esa “Lüge” (yolg‘on) so‘zidan yasalgan bo‘lib, uning *ongli ravishda boshqalarni yanglishtirish, bilib turib yolg‘on-yashiq gaplash*, “betrügerisch” sifati “Betrüger” so‘zidan yasalgan va *suxbatdoshni bilib turib notog‘ri yo‘lga boshlash, aldash*, “verschmitzt” ravishdoshi *anqovlik, soddalikdan foydalanadigan* ma‘nolarini ifodalaydi. Biroq ulardagi qo‘shimcha ma‘nolar, ayyorlikning asosan *aldash* orqali yuz berishiga ishora qiladi. E‘tiborlisi shundaki, o‘zbek tilidagi ayyor so‘zi bilan ma‘nodosh til birliklarining hammasi salbiy ma‘noda tushuniladi va ularga variantdosh deb hisoblangan izohlovchilar ham salbiy leksika hisoblanadi. Nemis tilida ularning ma‘no sharhlarining ko‘pchiligi ijobiy leksika bilan izohlanilgan. Chunonchi, “schlau” so‘zida “klug – aqlli”, “clever – epchil, abjir”, “durchtrieben – pishiq”, “listig” so‘zida “schlangenklug – ilon kabi aqlli” kabi ijobiy ma‘nolar assotsiativ (*tasavvuran, qo‘shilib*) anglashiladi. Binobarin, muloqotda *assotsiatsiya* o‘zaro fikr almashish va suhbatdoshni to‘g‘ri tushunishda muhim rollardan birini o‘ynaydi. Bu hodisa chet tilini o‘rganishda, tarjimada va fikrlarni teran bayon qilishda, ayniqsa masala mohiyatini aniq tushunishda alohida ahamiyatga ega.

XULOSA. Maqolamiz oxirida so‘z ma‘nolari bobida yana bir narsani ta‘kidashni istar edikki, u ham bo‘lsa ma‘nodosh so‘zlarning har

birini boshqalardan ajratuvchi (farqlovchi) xususiyatlarining doimo mavjudligidir. Sinonimlarni variantdosh bilib, biroq, biri o'rnida ikkinchisini qo'llash yoxud birining ma'nosini ikkinchisining ma'nosiga teng deb bilish muloqotda muayyan anglashilmovchiliklar keltirib chiqaradi. Suhbat istalganidek maqsadga muvofiq chiqmaydi. Chet tillarini o'rganishda esa bunday yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Fikrimizni quvvatlash uchun jonli misol keltirishga harakat qilamiz va qiyoslanayotgan ikkala tilda ko'makchilar va ularning paradigmatic qo'llanish ma'nolariga e'tibor qaratamiz. Nemis tilini o'rganishda ayrim fe'llar "über" va "von" ko'makchilari bilan boshqarilishi va ma'nolari ham o'xshash (ikkalasi ham "haqida" ma'nosiga ega) ekanligi ta'kidlaniladi (bu ko'makchilar polisem bo'lib, fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan sintaktik bog'lanib kelsalar, ularning ma'nolari butunlay boshqa-boshqa tushunchalarni anglatishlari lug'at(muloqot)larda qayd qilingan, jumladan, "über" ko'makchisining 12 ta ma'nosi va "von" ko'makchisining 9 ta ma'nosi borligi (DUDEN Deutsches Universalwörterbuch, 6-Auflage, 2006) izohlanilgan). Bunday fe'llar tarkibiga "aytmoq" (sagen) fe'liga ma'nodosh bo'lgan "gapirmoq" (sprechen), "so'zlamok" (reden), "hikoya qilmoq" (erzählen), "xabar bermok" (benachrichtigen) kabi fe'llar kirishi uqtiriladi. Faqat "über" ko'makchisidan keyin Akkusativ (tushum) kelishigida va "von" ko'makchisidan keyin kelgan ot (to'ldiruvchi)ning Dativ kelishigida turlanishi zarurligi eslatiladi [5; S.358, 362]. Qizig'i shundaki, muloqotda bu ko'makchilarning almashinib qo'llanilishi nemis tilida katta ma'no o'zgarishlariga olib kelmaydi. Gap biror narsa yoki hodisa haqida borayotganini bildiradi xolos. Oshib borsa, bu ko'makchilar anglatayotgan tasavvuriy ma'no (sema)lar orqali "von"ning *biron narsa yoki hodisaga "qarashli"lik*, "über"ning esa *biron narsa yoki hodisa "ustida" ekanligini* anglasa bo'ladi. Endi "über" va "von" ko'makchili yuqorida nomlangan fe'llar ishtirokida tuzilgan nemischa matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilmoqchi bo'lsak, ularning inson ongida shakllanishi mumkin bo'lgan tasavvuriy ma'nolari keskin oshib ketishi va rang-barang bo'lishini qayd etish joiz. Zero, milliy tilimizda "haqida" leksemasiga ma'nodosh til birliklari anchagina. O'zbek tilining izohli lug'atida mazkur ko'makchi "haq" (arabcha – to'g'ri, rost, chin, haqqoniy, huquq,

adolat, majoziy ma'noda "Xudo") so'zidan yasalganligi qayd qilinib, uning (egallik va o'rin-payt kelishigi shaklida – haqida) ko'makchi vazifasida kelishligi va *qaratilganlik munosabatini bildirishi; to'g'risida, to'g'rida* ma'nosi borligi va uning ikkinchi imlo va talaffuz "haqda" shakli ham mavjudligi, uning ham ko'makchi vazifasida kelishi va *asosan ko'rsatish olmoshlari bilan qo'llanib, harakat va obyekt munosabatlarini ko'rsatishi; to'g'rida, borada* kabi ma'nolarda anglashilishi qayd qilinadi [2;5 -жилд, 6.519]. Izohlardan ko'rinib turibdiki, mazkur ko'makchining yuqoridagi ma'no sharhlari orqali biror narsa va hodisa (gap ketayotgan shaxs)ning *to'g'riligi, rostligi, chinligi, borligiga* ishora qilinyapti. Bizning fikrimizcha, bu ma'nolarga qo'shimcha ravishda tilimizda yana ayrim variantdor til birliklarini nomlab o'tish mumkin. Jumladan, *sen(ing) haqingda* so'z birikmasini *sen(ing) to'g'ringda, sen borangda, sen bobingda, sening mavzuingda, sening xususingda, sening ustingda* kabi til birliklari bilan o'rin almashtirib muloqotda qo'llash mumkin.

Misol: "Kecha majlisda *sen haqingda gapirishdi*" deyilsa suhbatdosh bu gapni eshitib xavotirlanadi, aksariyat hollarda xafa bo'ladi, *ko'makchi* ma'nosini yomonga yo'yadi va salbiy tushunadi. Mazkur ko'makchining tub ma'nosiga e'tibor bermaydi va "*meni g'iybat qilishibdi-da*" deb o'ylaydi. Vaholanki, "haqingda" leksemasining yuqoridagi ma'nolarini esla(bil)maydi. Yoxud suhbatdosh *sen haqingda* so'z birikmasi ostida, gap *uning rostligi, uning chinligi, uning to'g'riligi, uning haqligi, uning Haq yo'lida yashayotgani, Haqning hukm va ko'rsatmalari bo'yicha ish tutishi* ta'kidlanayotganligini anglamaydi. Bu gapdan quvonishi lozim ekanligini bilmaydi. Shu ma'noda "sen to'g'ringda" (sening *to'g'ri, rost, chin ekanliging, tevarak-atrofga to'g'ri munosabatda bo'lishing*), "sen borangda" (sening *borliging, mavjudliging, senday odamning hayotda yashab kelayotganligi*), "sen bobingda" (*sen to'g'ringda qisman, bir bob hajmida gapirildi*), "sening mavzuingda" (*mavzu – tema sen haqingda bo'ldi, suhbatda muhim shaxs eding*), "sening xususingda" (*sening o'zingga xos, yarasha tomonlaring, sendagi xususiylik*) kabi ijobiy ma'noda aytilgan fikr va mulohazalar tasavvuran anglashilsa, o'zaro fikr almashish maqsadga muvofiq kechadi. Yuzaga kelgan salbiy hissiyotlarning behuda ekanligi tushuniladi. Yuqorida "sening haqingda" so'z

birikmasiga variantdosh deb nomlangan til birliklari ichida faqat “sening ustingda” muqobilini salbiy (*ustingga chiqib rosa tepkilashdi*) ma’nosida, *g’iybat qilishibdi* tasavvurida anglash mumkin. Endi yuqoridagi iboralarning biz istaganday ijobiy emas, balki salbiy tushunilishiga olib kelgan ayrim obyektiv va subyektiv sabablar borki, u ham bo’lsa “gapirishmoq” birgalik nisbati fe’lining o’zagi ot so’z turkumiga xos “gap” so’zining aksariyat hollarda salbiy ma’noda anglashilishidir. Darvoqe, mazkur forsiy o’zlashmaning asliyat tilida “safsata” ma’nosi borligi va uning milliy tilimizga kirib kelib, *gina, kudurat* ma’nosini olishi, ayniqsa *gap bo’lmoq, gap kovlamoq, gap tashlamoq, gap sotmoq, gap talashmoq, gap tegmoq, gap tegizmoq, gap to’qimoq, gap eshitmoq, gap o’g’irlamoq, gap qaytarmoq, gap qilmoq, gap qistirmoq, gapga kirmoq, gapga solmoq, gapdan gap chiqmoq, gapiga ilinmoq, gapidan ilinmoq, gapni aylantirmoq, gapni bo’g’moq, gapni chuvalamoq, gapning beliga tepmoq* qo’shma fe’llarida hamda *mayda gap, og’ir gap, betayin gap, achchiq gap, qattiq gap* so’z birikmalarida asosan salbiy ma’noda ishlatilishidir [2;1-jild,6.481-485]. “Gap” o’zlashmasining fors tilida “so’z” ma’nosi ham bor. Tilimizda “so’z” alohida va mustaqil til birligi sifatida qo’llaniladi va uning ham o’z leksik ma’nolari mavjud. Izohli lug’atimizda uning 8 ta ma’nosi borligi qayd qilinadi. Asosiy va birinchi ma’nosi sifatida unga tilshunoslikda *til birligi*

sifatida qaralishi, qolgan 7 ta ma’nosi esa uning “gap” so’zi bilan aksariyat hollarda ma’nodosh ekanligi va qo’llanilishi sharhlanadi. Shu asnoda, mazkur leksemaning *gap-so’z bo’lmoq, gap-so’zga qolmoq, gap-so’z eshitmoq* kabi qo’shma fe’llarda juftlashib kelgan *gap-so’z* birikmasi ham nisbatan salbiy ma’noda ishlatiladi.

E’tiborlisi shundaki, yuqorida semantik tahlilga tortilgan o’zbek tili lug’at tarkibiga qarashli barcha so’z birikmalari va “gap” (der Satz) so’zining nemis tilidagi muqobillari biron joyda ham salbiy ma’noda ishlatilmaganligining guvohi bo’ldik, yoxud tadqiqot jarayonimizda bunday holatlarga duch kelmadik.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.- Б.224.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 – жилдли.-Тошкент, 2020.
3. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш.- Тошкент: Ўқитувчи, 1981.- Б.224.
4. DUDEN Deutsches Universalwörterbuch. – Mannheim: Brockhaus AG, 2007.- S. 2016.
5. DUDEN Die Grammatik. Dudenverlag: Mannheim-Leipzig-Wien-Zürich, 1984.-S.800.

